

Korxonalar va tashkilotlar



(fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– avgust holatiga


RAQAMLAR:

- Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **1745 taga o'sdi**
- Faoliyat ko`rsatmayotgan korxonalarning ulushi **0,1 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalarga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **1593 taga oshgan.**

2018 yilning yanvar-avgust Buning natijasida joriy oyida viloyatda 2267 ta yilning boshiga nisbatan korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan yangi tashkil etildi, bu esa korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning shu davriga 1745 ta (12,7%) ga nisbatan 38,6 foizga ko'pdir. o'sgan hamda ularning Shuningdek, faoliyati umumiyligi soni 15464 tani tugatilgan korxona va tashkilotlarning soni o'tgan Faoliyat ko`rsatayotgan yilning shu davriga nisbatan korxonalar va 20,0 % ga kamaygan hamda tashkilotlarning asosiy ulushi ular Termiz shahrida (20,2 foiz), ning soni 675 tani tashkil Denov (12,1 foiz), etganligini kuzatish mumkin. Jarqo'rg'on (7,8 foiz) va Termiz (7,1 foiz) tumanlarida kuzatilmogda.

Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




Ro'yxatdan o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 sentyabr holatiga)


	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlikda	jamiga nisbatan %	birlikda	jamiga nisbatan %
Surxondaryo viloyati	16030	100	15464	100
Termiz sh.	3199	20,0	3129	20,2
tumanlar:				
Oltinsoy	646	4,0	600	3,9
Angor	774	4,8	737	4,8
Boysun	770	4,8	747	4,8
Muzrabot	685	4,3	660	4,3
Denov	1944	12,1	1863	12,1
Jarqo'rg'on	1220	7,6	1207	7,8
Qumqo'rg'on	1012	6,3	943	6,1
Qiziriq	819	5,1	795	5,1
Sariosiyo	907	5,7	877	5,7
Termiz	1136	7,0	1101	7,1
Uzun	907	5,7	852	5,5
Sherobod	994	6,2	958	6,2
Sho'rchi	1017	6,4	995	6,4

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 23,9 % savdoda, 12,4 % sanoatda, 11,2 % qurulishda, 7,7 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 7,0 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,5 % tashish va saqlash, 1,8 % sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,4 % axborot va aloqa va 30,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi, birlikda




2018 yil yanvar-avgust holatiga 2267 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 38,6 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Termiz shahrida (388 ta), Denov (292 ta), Sho'rchi (225 ta), Qumqo'rg'on (169 ta), Jarqo'rg'on (154 ta), Termiz (139 ta), Qiziriq (134 ta), Angor (132 ta) va Sarosyo (127 ta) tashkil etilgan. Eng kam Oltinsoy (77 ta), Boysun (92 ta), Muzrabot (113 ta) hamda Sherobod (117 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (541 ta), boshqa turlarida (519 ta), sanoatda (348 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (304 ta), qurilishda (271 ta) va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (151 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (17 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (53 ta) hamda tashish va saqlashda (63 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-avgust holatiga.	2018 yil yanvar-avgust holatiga.
Jami:	1636	2267
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	225	304
Sanoat	299	348
Qurilish	210	271
Savdo	373	541
Tashish va saqlash	100	63
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	188	151
Axborot va aloqa	19	17
Sog'lirqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	25	53
Boshqa turlari	197	519

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo`yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarning umumiyl soni (fermer va dehqon xo`jaliklaridan tashqari)

2018 yil 1 sentyabr holatiga 12060 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko`rsatayotgan bo`lib, shundan mas`uliyati cheklangan jamiyatlar – 5473 ta, xususiy korxonalar – 5424 ta, oilaviy korxonalar – 721 ta, va boshqalar 442 tani tashkil etadi.



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 sentyabr holatiga faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 116 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 54 taga yoki 87,1 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko`rsatayotgan korxonalardan 49 tasi qo'shma korxonalar, 67 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yillar davomida o'sish, birlikda




Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning asosiy qismi Termiz shahar 43 ta (37,0%), Termiz 14 ta (12,1%), Denov va Jarqo'rg'on tumanlarida 8 ta dan (6,9 % dan), Qumqo'rg'on 7 ta (6,0%), Sariosiyo, Sherobod Muzrabot va Angor tumanlarida 6 ta dan (5,2% dan), Sho'rchi va Qiziriq tumanlarida 4 ta dan (3,4% dan) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Oltinsoy 2 ta (1,7%) Uzun hamda Boysun tumanlarida 1 tadan (0,9 %) hissalariga tog'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 sentyabr holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 45 ta (38,8%), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 28 ta (24,1%), savdoda 23 ta (19,8%), boshqa faoliyat turlarida 7 ta (6,0% tashkil qilgan, eng kamlari esa, tashish va saqlashda va qurilishda 5 tadan (4,3 % dan), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, axborot va aloqada va yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 1 ta dan (0,9%dan) tashkil qilgan. Shundan ko'rinish turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, axborot va aloqa hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko`rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-avgust oyida viloyatda xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 57 tani tashkil qilgan. Bu ko'satkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 50 taga ko'paygan yoki 8,1 baravarga oshgan.

Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 2 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-1 ta, Koreya Respublikasi - 1 ta, Germaniya Federativ Respublikasi – 1 ta, Buyuk Britaniya– 1 ta, Turkmaniston Respublikasi - 1 ta, Gruzya Respublikasi - 1 ta, Eron Islom Respublikasi - 3 ta, Qozogiston Respublikasi – 3 ta, Tojikiston Respublikasi - 4 ta, Afg'oniston Islom Respublikasi - 39 ta, yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-avgustl holatiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarini iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 21 ta, sanoatda 15 ta, savdoda 14 ta, qurilishda 4 ta, tashish va saqlashda 1 ta va boshqa faoliyat turlarida 2 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxona va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 sentyabr holatiga viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning soni 11972 tasi tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 sentyabr holatiga qaraganda 12,7 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi yani 2658 tasi (22,2%) Termiz shahriga, 1484 tasi (12,4%) Denov, 950 tasi (7,9%) Jarqo'rg'on hamda 943 tasi (7,9%) Termiz tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11972 ta kichik korxona va mikrofirmalarning 3686 tasi (30,8 %) – savdoda, 1889 tasi (15,8 %) - sanoatda, 1721 tasi (14,4 %) - qurilishda, 1345 tasi (11,2 %) - boshqa faoliyat turlarida, 1156 tasi (9,7 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1067 tasi (8,9 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 688 tasi (5,7 %) - tashish va saqlashda, 214 tasi (1,8 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 206 tasi (1,7 %) - axborot va aloqa sohasi hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinish turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning asosiy qismi savdo va sanoat faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-avgust holatiga 2035 ta kichik korxona va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 29,4 % ga ko'proqdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar Termiz sh. (347 ta), Denov (273 ta), Sho'rchi (220 ta), Qumqo'rgon (144 ta), Jarqo'rg'on (142 ta), Qiziriq (131 ta), Angor (127 ta) va Termiz (125 ta) tumanlarida tashkil etilgan. Eng kam Sherobod (110 ta), Sariosiyo (101 ta), Muzrabot (94 ta), Uzun (89 ta), Boysun (85 ta) hamda Oltinsoy (47 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (540 ta), sanoatda (348 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va (304 ta), boshqa turlarida (290 ta), qurilishda (234 ta), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (151 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa tashish va saqlashda (63 ta), sog'lijni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (52 ta) hamda axborot va aloqada (17 ta) tashkil etilgan.

Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro`yxatidan o`tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 sentyabr holatiga 761 tani tashkil etib, ulardan 721 tasi yoki 94,7 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o`tgan yilning shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **23,8 %** ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarning Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarning 33,0 % yoki 238 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 24,4 % yoki 176 tasi sanoat, 22,3 % yoki 161 tasi savdo, 12,5 % yoki 90 tasi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi, 1,7 % yoki 12 tasi tashish va saqlash, 1,1 % yoki 8 tasi qurilish, 0,8 % yoki 6 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko`rsatish, 0,3 % yoki 2 tasi axborot va aloqa, hamda 3,9 % yoki 28 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to`g`ri kelmoqda.

Faoliyat ko`rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



**Surxondaryo viloyati statistika
boshqarmasi**
Statistik registrlarni yuritish bo'limi

**Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat
registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida
tayyorlangan**

Nashr uchun mas'ul:
O.Raxmanov
(0376) 223-06-95